



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 1-13 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

VALYUTA KURSLARI O'ZGARISHLARINING ASOSIY SABABLARI VA MAZKUR O'ZGARISHLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARGA TA'SIRI



Amir Xudaykulov,

Termiz davlat universiteti "Moliya" kafedrasida dosenti v.b.,

TDIU mustaqil izlanuvchisi PhD.

Termiz, O'zbekiston,

E-mail: amir7x@mail.ru; xudoyqulova@tersu.uz

ORCID: 0000-0001-8915-5962

Annotasiya. Mazkur maqolada valyuta kurslari o'zgarishlarining asosiy tipik kelib chiqish sabablari va mazkur o'zgarishlarning korxonalar moliyaviy hisobotlariga tasiri 21-sonli "Valyuta kurslari o'zgarishlarining ta'siri" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga (MHXS) muvofiq tahliliy ravishda vaziyatli asoslarda o'rganib chiqilgan.

Abstract. This article analytically investigates the primary causes of exchange rate fluctuations and their effects on the financial reporting of enterprises in compliance with International Financial Reporting Standard (IFRS) IAS 21 "The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates". The study is carried out based on a situational approach.

Аннотация. В данной статье аналитически исследованы основные типичные причины возникновения изменений валютных курсов, а также влияние этих изменений на финансовую отчетность предприятий в соответствии с международным стандартом финансовой отчетности (МСФО) № 21 «Влияние изменений обменных курсов валют». Исследование проведено на основе ситуационного подхода.

Tayanch iboralar: Funktsional valyuta, hisobot valyutasi, xorijiy valyuta, almashinuv kursi, joriy kurs / spot kurs, yakuniy kurs, kurs farqidan olingan foyda yoki zarar, giperinflyasiya sharoitida moliyaviy hisobot, hisobot sanasidan keyingi hodisalar.

Keywords: Functional currency, presentation currency, foreign currency, exchange rate, spot exchange rate, closing rate, profit or loss from exchange differences, financial statements in conditions of hyperinflation, events after the reporting date.

Ключевые слова: Функциональная валюта, валюта отчетности, иностранная валюта, обменный курс, текущий обменный курс / спотовый курс, конечный курс, прибыль или убыток от курсовой разницы, финансовая отчетность в условиях гиперинфляции, события после отчетной даты.

Kirish. Bugungi kunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ni dunyoning 160 dan ortiq davlatlari samarali qullayotgan bo'lsa, ulardan biri O'zbekiston Respublikasi bo'lib hisoblanadi. 21-sonli MHXS nomi "Valyutalar kursi o'zgarishlarining ta'siri", - deb nomlanib, u valyutalar kursi o'zgarishlarining moliyaviy hisobotlarga ta'sirini o'rganishga va asosiy tartib-taomillarni belgilab berishga bag'ishlangan.

Valyuta kurslari har bir insonning hayotida katta yoki kichik darajada bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazib boradi.

Valyutalar kursining oshishi inflyasiya suratining tezlashishiga, barqaror valyuta kurslari esa investorlarda ishonch tuyg'ularining shakllanishiga sababchi bo'ladi. O'z kapitalingizni mohirona va unumli boshqarishingiz uchun valyutalar kurslari nimalarga bog'liqligini, ularning keskin o'zgarishiga qanday tashqi va ichki omillar sabab bo'lishini bilishingiz kerak bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Dunyo amaliyotida milliy iqtisodiyotni jahon bozori bilan integrasiya qilish maqsadida dastlab xorijiy valyutalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobini o'rganish masalalariga katta urg'u berilgan va milliy standartlar tegishli qoidalar bilan to'lg'azib borilgan. 21-sonli "Valyuta kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS paydo bo'lish tarixiga yuzlansak, ilk bor 1977 yilning dekabrda E11 "Xorijiy operatsiyalar hisobi va xorijiy moliyaviy hisobotga o'tkazish" nomli loyiha omma muhokamasiga qo'yilgan. 1982 yilning mart oyida E11 o'zgartirildi va E23 "Valyutalar kursi o'zgarishlarining oqibatlarini hisobi" nomi bilan qaytadan ommaga muhokama loyihasi sifatida taqdim etilgan.

Shundan so'ng 1983-yilda xalqaro standartlar bo'yicha Qumita tomonidan 21-sonli "Valyutalar kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS (IAS) maqullangan va 1985-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Mazkur standart 1993-yilda moliyaviy hisobotlarni taqqoslash loyihasi doirasida qayta ko'rib chiqilgan va 1995-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. 2005-yilning dekabrda xorijiy faoliyatga sof investitsiyalar punkti bo'yicha kichik o'zgartirishlar kiritilgan. 2008-yilning 10- dekabrda "Biznesni birlashtirish: II faza" loyihasiga muvofiq operatsiyalarda sotuv qismi bo'yicha standartga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

2023-yilning 15-avgustida almashinuv imkoniyatining mavjud emasligi punkti bo'yicha to'g'irlashlar kiritilgan va 2025-yilning 1-yanvardan amalga kiritilgan. Unda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda valyuta kurslarini tanlash tartib-qoidalari o'z aksini topgan. Shuningdek, mazkur standart ulushli ishtirok etish metodini qo'llashda xorijiy xo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy hisobotlari malumotlarini qayta hisoblash tartibini belgilaydi. Bunday tartib faqat assosiasiyalashgan (sho'ba) xorijiy kompaniyalarning hisobotini yig'ma hisobotga kiritish maqsadida keltiriladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, xorijiy valyutalar kursi farqlarini hisobga olib, ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar moddiy zaxiralari bo'yicha moliyaviy hisobot topshirish sanasidagi kurs bo'yicha qayta hisoblash amalga oshirilmaydi. Ular tarixiy, yani xarid qilish sanasidagi kursda milliy valyutaga aylantirilgan holda aks ettiriladi, lekin faol bozor baholarida odatda qayta baholanib boriladi.

Ammo debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, xorijiy valyutadagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari hisobot sanasidan oldingi oxirgi ish kunidagi rasmiy kurs bo'yicha qayta hisoblanadi, shuningdek, shartnoma tuzilgan sanadagi rasmiy kurs bilan shartnoma kuchga kirishi sanasidagi (hisob faktura va yuk xati rasmiylashtirilgan holatida) kurslar o'rtasidagi ijobiy yoki salbiy kurslar farqlari moliyaviy hisobotlarda tegishli ravishda aks ettirilishi kerak bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada iqtisodiy-statistik tahlil, kurs farqlarini jamg'arish, kurs farqining o'rtacha miqdori, qiyosiy tahlil, moliyaviy hisobotlar tahlili, qayta baholash va ssenariyli tahlil kabi tadqiqot usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliyotda har bir davlatning o'z valyutasi borligini bilamiz: AQShda – bu dollar, Xitoyda – yuan, Rossiyada – rubl, O'zbekistonda esa – so'm. Davlatlar o'zaro dunyo miqyosidagi savdo bozorida hamkorlikni amalga oshirishlari uchun turli milliy pul birliklari o'rtasidagi o'zaro nisbatni belgilovchi valyutalar kursini o'rnatadilar. Valyutalar qiymati xuddi har qanday tovarning narxlari kabi doimiy o'zgarib turadi.


Oddiy so'zlar bilan aytganda kotirovkalar u yoki bu valyutaga bo'lgan talabgorlarning to'g'ridan-to'g'ri talabi dinamikasidan kelib chiqadi.

Dam olish kunlaridan tashqari har kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank xorijiy valyutalarga nisbatan, shu jumladan dollarga nisbatan so'mning rasmiy kursini belgilaydi.

So'mning xorijiy valyutaga nisbatan almashinuv kursi – O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi tomonidan tashkil etiladigan har kunlik banklararo savdolarda shakllanadi. Bunda tijorat banklari o'z mijozlari bo'lgan xo'jalik yurituvchi subektlarning tegishli buyurtmalariga binoan xorijiy valyutaning oldi-sotdisini amalga oshirishadi, yani valyuta kursining o'zgarishiga - talab va taklif asos bo'lib hisoblanadi.

Agar valyutaga bo'lgan talab oshsa, uning qiymati ham oshadi. Agarda milliy tovarlar bo'yicha bitimlar soni yoki investisiyalar hajmi kamaysa, unda kurs pasayadi.

Quyida keltirilgan 1-rasmga muvofiq mamlakat o'z tovar, ish va xizmatlarini eksport qilganda, u eksport qilgani uchun haqni xorijiy valyutada oladi. Xuddi shuningdek holat yuridik va jismoniy shaxslar xorijdan pul o'tkazmalarini mamlakatga yuborganda ham kuzatiladi.



1-rasm. O'zbekistonda milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan qadri oshishini ta'minlovchi asosiy manbalar¹

Mazkur tushumlarga teskari holat sifatida 2-rasmdagi O'zbekistonda milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan qadri kamayishini taminlovchi asosiy manbalarni

¹ Muallif tomonidan izlanishlarga muvofiq ishlab chiqildi.

keltirish mumkin. Agar davlat tovar va xizmatlarning asosiy qismini xorijdan import qilsa; xorijda bo'lgan vaqtda xorijiy valyutani qanchadir miqdorda chiqim qilishni oshirsa; shuningdek davlatning tashqi qarzlari xorijiy valyutada olinib qaytarilayotgan bo'lsa, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kurslari pasayib boradi.



2-rasm. O'zbekistonda milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan qadri kamayishini taminlovchi asosiy manbalar²

Yuqorida keltirilgan barcha valyuta xarajatlari - xorijiy valyutaga, xususan dollarga bo'lgan talabni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Milliy va jahon valyutalarining bozordagi holatiga tasir o'tkazishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni shartli ravishda ikkita katta kategoriyaga ajratishimiz mumkin:

- Mamlakatning ichki siyosiy-iqtisodiy omillari;
- Valyuta kursiga bosim o'tkazayotgan tashqi dunyodagi voqea-hodisalar.

² Muallif tomonidan izlanishlarga muvofiq ishlab chiqildi.



3-rasm. Valyuta kursining o'zgarishiga tasir etuvchi omillar³

Yuqorida 3-rasmda keltirilgan valyuta kursining o'zgarishiga tasir etuvchi omillarni tahliliy ravishda quyidagicha yoyilmalarga ajratish mumkin:

1). Ichki siyosiy-iqtisodiy omillar. Valyuta qiymati o'zgarishining ichki omillariga mamlakat ichida sodir bo'ladigan barcha muhim moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy voqea-hodisalar kiradi.

YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot) ko'rsatkichi – davlat iqtisodiyotining umumiy holatini aks ettiradi. YaIM ning oshishi xizmat ko'rsatish va servis, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, yuk tashish, bevosita soliqlar va eksport sohalarining gullab yashnayotganligidan darak beradi. YaIM ning oshishi valyuta kursini mustahkamlaydi, YaIM ning tushishi esa – teskarisiga valyuta kursini zaiflashtiradi.

2). Ishsizlikning oshishi yoki kamayishi. Mamlakatdagi ishsizlar sonining oshishi – milliy iqtisodiyot holatining yomonlashishiga va milliy valyuta qiymatining tushishiga olib keladi.

³ Muallif tomonidan izlanishlarga muvofiq ishlab chiqildi.

3). Import yoki eksport darajasi. Import tovarlari hajmining oshishi davlat iqtisodiyotining tushib, tanazzulga yuz tutib borayotganligidan darak beradi. Bu esa milliy valyuta holatiga negativ tasir etadi. Eksport hajmining oshishida esa teskari holat kuzatiladi.

4). Mamlakatdagi inflyasiya darajasi – bir necha hisobot davrlari uchun oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari narxlarini solishtirish orqali hisoblab chiqariladi. Inflyasiya darajasining har bir oshishi bilan milliy valyuta qadrsizlanaveradi.

5). Davlat byudjetining muvozanatligi. Agar byudjet defisitini qoplash maqsadida qo‘shimcha pul emissiyasi amalga oshirilsa, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri birdan inflyasiya tempini oshishiga va valyuta kursining tushishiga sabab bo‘ladi.

6). Davlat qarzi darajasi. Qarzning yuqori darajasi kuzatilganda, ayniqsa bunda tashqi qarzlarning hisssasi ko‘p bo‘lsa, bu holat almashinuv valyutasiga bo‘lgan talabni oshib ketishiga sabab bo‘ladi.

7). Tashqi voqea-hodisalar. Tashqi omillar deganda mamlakat tashqarisida sodir bo‘ladigan va bunda valyuta kursiga muhim tasir ko‘rsatadigan turli voqea-hodisalar tushuniladi. Bunda ma‘lum bir davlatning milliy valyutasiga bo‘lgan ishonch darajasi yuqori bo‘lishi holati ayniqsa tanqidiy holat sifatida baholanadi. Xususan, agarda investorlar norozi bo‘lsa va mazkur pul birligiga ishonchi bo‘lmasa, bu joriy valyuta kursining tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yana bir kotirovkalarga bosim o‘tkazadigan salmoqli omillardan biri xom-ashyo resurslari va oltinning narxi bo‘lib hisoblanadi. Bunda agarda energiya tarqatuvchi resurslarni etkazib beruvchi davlatlar uchun ular qiymatining oshishi mazkur davlatlar milliy valyutasi kursining qatiy oshishiga sababchi bulsa, mazkur holat importyor davlatlar uchun esa aksincha ular valyutasi kursining tushishiga sababchi buladi.

Valyuta kurslari o‘zgarishlarining moliyaviy hisobotlarga tasirini o‘rganishda quyidagi atamalarga tariflarni alohida keltirishni lozim, - deb topdik:


Funksional valyuta (functional currency) – bu korxonaga o‘z faoliyatini amalga oshiradigan birlamchi iqtisodiy muhit valyutasi. Funksional valyutani aniqlashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

- Asosan tovar va xizmatlarning sotish narxiga tasir etuvchi valyuta (ko‘p hollarda bu sotish narxini ifodalovchi va belgilovchi valyuta);

- Tovarlarni va xizmatlarni taqdim etishda asosan mehnat, material va boshqa sarflarga tasir etuvchi valyuta (bu odatda shunday xarajatlarni ifodalovchi va belgilovchi valyuta);

- Asosan uning raqobatbardoshlik qudrati va tartiblari tovar va xizmatlar sotish narxini belgilaydigan davlat valyutasi;

Shuningdek, ba’zida qarz va kapitalni moliyalashtirish valyutasi hamda odatda operasion faoliyatdan olinadigan daromadni ifodalovchi valyuta (4-rasm).



4-rasm. Funksional valyutani aniqlashning asosiy omillari⁴

Hisobot valyutasi (presentation currency) – bu kompaniya o‘z moliyaviy hisobotini taqdim etadigan valyuta.

Xorijiy valyuta (foreign currency) – bu kompaniyaning funksional valyutasidan farq qiluvchi valyuta.

Almashinuv kursi (exchange rate) – bu bir valyutaning boshqasiga nisbatini ifodalovchi koeffitsient.

Joriy kurs / spot kurs (spot exchange rate) – kechiktirib bo‘lmaydigan yetkazib berishdagi (shartnoma bo‘yicha) valyutaning almashinuv kursi.

Yakuniy kurs (closing rate) – bu hisobotni tuzish sanasidagi joriy (spot) kurs.

Har qaysi hisobot topshirish sanasida adolatli qiymatda hisobga olingan xorijiy valyutadagi nomonetar moddalar adolatli qiymatni belgilash chog‘ida amal qilgan valyuta kursidan foydalangan holda qayta hisoblab chiqilishi lozim bo‘ladi.

Misol uchun deylik, Delta kompaniyasi 2025 yil 31 martda tugaydigan yillik moliyaviy hisobotni tayyorlamoqda. Bunning uchun sizga mazkur sanaga bo‘lgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotdan parchani taqdim etamiz.

1-jadval

Delta kompaniyasining 2025 yil 31 martda tugaydigan yillik moliyaviy hisoboti moddalarini tahliliy o‘rganish

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot moddalari	Aktiv	Passiv
2025 yil 31 mart holatiga TMZ	20000	

⁴ Muallif tomonidan izlanishlarga muvofiq ishlab chiqildi.

Savdo kreditorlik qarzdorliklari		11800
Joriy yil foydasi		8200
Jami:	20000	20000

Yevropadagi taminotchidan 2025-yil 31-yanvarda 800 ming yevroga xarid qilingan ehtiyot qismlar 2025-yil 31-mart sanasiga kelib 960 ming dollarni tashkil etdi. Mazkur ehtiyot qismlardan 2025-yilning 31-mart sanasida ham foydalanilmadi. 2025-yilning 31-may sanasida taminotchiga yevroda hisob-kitoblar amalga oshirildi.

Almashinuv kurslari quyidagi ko'rinishga ega edi:

2-jadval

AQSh dollarining yevroga nisbatini dinamik o'rganish

Sana	Almashinuv kursi (1\$ yevroga nisbatan)
2025-yil 31-yanvarda	1,20
2025-yil 31-martda	1,30
2025-yil 31-mayda	1,35

Topshiriq:

Delta kompaniyasining 2025 yil 31 mart sanasiga Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotini tayyorlang.

Yechim.

21-sonli "Valyutalar kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS tartib-qoidalariga muvofiq TMZ lar qiymati xarid sanasidagi almashinuv kursi bo'yicha dollarda konvertatsiya qilinadi.

Yevro hisobidagi savdo kreditorlik qarzlari moliyaviy hisobot topshirish sanasidagi valyuta kursini hisobga olgan holda qayta konvertirlanishi kerak ($1\text{€} = 1,30\text{\$}$) va Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda 1040 ming dollar sifatida kiritilishi kerak bo'ladi.

Salbiy kurs farqi (konvertasiyadan zarar) 80 ming dollarni ($1040\text{\$} - 960\text{\$}$) tashkil etadi va u operasion xarajatlar tarkibida aks ettirilishi kerak bo'ladi.

3-jadval

Delta kompaniyasining 2025-yil 31-martda tugaydigan yillik moliyaviy hisoboti moddolari reformasiyasi

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot moddolari	Aktiv	Passiv
2025 yil 31 mart holatiga TMZ lar	20000	
Savdo kreditorlik qarzdorligi		11880
Joriy yil foydasi		8120
Jami:	20000	20000

MHXS ga muvofiq funksional valyutadan hisobot valyutasiga qayta hisob-kitob qilib chiqish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

Xalqaro tartibga muvofiq kompaniya o'z hisobotini har qanday valyutada taqdim etishi mumkin. Agarda funksional valyuta moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasidan

farq qilsa, unda foyda yoki zararlar hamda umumlashgan daromadlar va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasiga o'tkazish kerak bo'ladi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subektning ustav kapitalini shakllantirishda ta'xis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasidagi va haqiqatda ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o'rtasida vujudga keladigan ijobiy kurs farqi buxgalteriya hisobida qo'shilgan kapital sifatida 8420-«Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotida aks ettiriladi.

Xujalik yurituvchi subektning ustav kapitalini shakllantirishda ta'xis hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish sanasidagi va haqiqatda ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o'rtasida vujudga keladigan salbiy kurs farqi esa buxgalteriya hisobida 8420-«Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotining debetida ustav kapitalini shakllanishida vujudga kelgan oldingi ijobiy kurs farqi summasi chegarasida aks ettiriladi. Ustav kapitalini shakllantirishdagi salbiy kurs farqi summasining ijobiy kurs farqi summasidan oshgan qismi moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga olib boriladi.

21-sonli "Valyuta kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS bo'yicha qayta hisoblab chiqishda xorijiy valyutalarning o'rtacha kurslarini qo'llashga ruxsat etiladi (masalan, bir hafta yoki bir oy uchun).

4-jadval

Kurs farqlarini o'rtacha miqdor bo'yicha hisobdan chiqarish⁵

Balansning valyuta moddasining nomi	AQSh dollarining summasi	Milliy valyutadagi summasi (so'mda)			Balansning valyuta moddalarini xar o'ui qauta baholash natijasida jamlangan kurs farqlari (sumda)	
		MB kursi 1\$=11940,95 so'm (01.12.2025 y. holatiga)	MB kursi 1\$=12097,93 so'm (15.12.2025 y. holatiga)	MB kursi 1\$=12025,33 so'm (30.12.2025 y. holatiga)	Ijobiy 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining krediti bo'yicha	Salbiy 3290-«Boshqa kechiktirilgan harajatlar» schyotining debeti bo'yicha
Valyuta mablag'lari	100 \$	1 194 095	1 209 793	1 202 533	(1 209 793 – 1 194 095=15 698); (1 202 533 – 1 209 793=-7 260)	
Debitorlik qarzlari	300 \$	3 582 285	3 629 379	3 607 599	(3 629 379 – 3 582 285=47 094); (3 607 599 – 3 629 379=-21 780)	

⁵ Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqildi.

Kreditorlik qarzlari	500 \$	5 970 475	6 048 965	6 012 665		(6 048 965 – 5 970 475=78 490) (6 012 665 – 6 048 965=-36 300)
JAMI	900 \$	x	x	x	(15698-7260)+(47094-21780)=8 438+25 314=33752	78490+(-36300)=42190

4-jadval ma'lumotlariga muvofiq, bir birlik chet el valyutasiga to'g'ri keladigan o'rtacha kurs farqi hajmini hisoblash:

$$(33\,752 \text{ so'm} + 42\,190 \text{ so'm}) / 900 \$ = 75\,942 \text{ so'm} / 900 \$ = 84,40 \text{ so'm}$$

Masalan:

Bunda 300 AQSH dollari miqdorida kreditorlik qarzi to'langanda, moliya-xo'jalik faoliyati natijasiga hisobdan chiqariladigan salbiy kurs farqi summasi 25320 so'm (300 \$ x 84,40 so'm) ga teng bo'ladi.

Shuningdek, debitorlik qarzlardan 250 AQSh dollari miqdorida valyuta mablag'i kelib tushganda, moliya-xujalik faoliyati natijasiga hisobdan chiqariladigan ijobiy kurs farqi summasi 21 100 so'm (250 \$ x 84,40 so'm) ni tashkil etadi.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlari jamg'arish usuli qullanilganda ular vujudga kelgan vaqtda moliyaviy-xujalik faoliyati natijalariga olib borilmaydi va buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

1). Ijobiy kurs farqining joriy qismi — 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditiga, uzoq muddatli qismi esa 7230-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyotining kredit tomoniga olib boriladi;

2). Salbiy kurs farqining joriy qismi esa — 3290-«Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotining debet tomoniga, uzoq muddatli qismi esa 0990-«Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotining debet tomoniga olib boriladi.

Jamg'arilgan kurs farqlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalariga olib borish quyidagicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi:

1) Ijobiy kurs farqi bo'yicha:

Debet 6230-«Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

Kredit 9540-«Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti;

2) Salbiy kurs farqi bo'yicha:

Debet 9620-«Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyoti;

Kredit 3290-«Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Odatda kurs farqlarini buxgalteriya hisobida yuritishni soddalashtirish maqsadida kechiktirilgan daromadlar va xarajatlar schyotlarida mos ravishda aks ettirilgan ijobiy va salbiy kurs farqlarini hisobdan chiqarishni hisobot oyining oxiridagi chet el valyutasining

bir birligiga to‘g‘ri keladigan kurs farqining o‘rtacha miqdori bo‘yicha amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Bunday kurs farqlarini olib borishda qo‘llanilayotgan usullar xo‘jalik yurituvchi subektning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim bo‘ladi. Belgilangan tartibga muvofiq odatda xo‘jalik yurituvchi subektlar hisob siyosatini kalendar yil davomida o‘zgartirmasligi lozim.

Ammo kurslar katta tebranishlarga ega bo‘lsa, o‘rtacha kurslarni qo‘llash ishonchli malumotlarni bermay quyadi.

Bu asosan giperinflyasiya iqtisodiyotiga ega davlatlarga xos holat. Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida «Chet el valyutasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qaror bekor qilindi⁶.

Xorijiy xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti giperinflyasiya iqtisodiyotiga ega davlat valyutasida tuzilishi mumkin. Bunday holatda 29-sonli “Giperinflyasiya sharoitida moliyaviy hisobot” nomli MHXS ga muvofiq xorijiy subektning moliyaviy hisoboti bosh tashkilotning hisobot tuzish valyutasiga o‘tkazilishidan oldin qayta hisoblab chiqilishi talab etiladi. Bunda nomoliyaviy aktivlar va majburiyatlar dastavval inflyasiya indekslaridan foydalanilgan holda qayta baholanadi. Undan so‘ng esa yil oxiridagi kurs bo‘yicha moliyaviy hisobot aks ettirilayotgan valyutaga o‘tkazib beriladi.

Agarda hisobot topshirish sanasidan so‘ng valyuta kurslarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, xo‘jalik yurituvchi subekt xorijiy operatsiyalar bo‘yicha o‘z moliyaviy hisobotlarining pul mablag‘lari moddalariga mazkur o‘zgarishlar ta‘sirini ochib berishi kerak bo‘ladi.

Mazkur holat hisobot sanasidan so‘ng sodir bo‘lgan hodisalar qatoriga kiradi (10-sonli “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” nomli MHXSga muvofiq). Mazkur holatni ochib bermaslik moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning to‘g‘ri qaror qabul qilishiga qarshi ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Korxonalar ikki xil tarzda xorijiy valyutalar orqali faoliyat yurita olishi mumkin:

- 1). Xorijiy valyutalarda operatsiyalar amalga oshirish;
- 2). To‘liq xorijiy faoliyatga ega bo‘lishi mumkin;

Shuningdek, korxonada o‘z moliyaviy hisobotlarini xorijiy valyutada tuzishi mumkin.

O‘zbekistonda esa odatda davlat soliq inspeksiyasiga elektron taqdim etiladigan barcha xorijiy valyuta ishtirok etgan moliyaviy hisobotlar milliy valyutamiz - so‘mga konvertatsiya qilingan holda taqdim etiladi⁷.

21-sonli “Valyuta kursi o‘zgarishlarining ta‘siri” nomli MHXS maqsadi – korxonada moliyaviy hisobotida xorijiy valyutalar bo‘yicha operatsiyalarni va xorijiy faoliyatni qanday kiritish kerakligini belgilashdan hamda moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarni taqdim etish valyutasiga qanday o‘tkazish kerakligini belgilashdan iborat.

⁶ «Chet el valyutasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qaror, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qumitasi, O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvi, O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining Qarori. [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1411-3]

⁷ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (22-sonli BHMS) “Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi” (5-punkt). O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrda 201-son buyrug‘iga 1-ilova

Bunda qanday almashinuv kurslarini qo'llash kerakligi va valyutalar kursi farqlaridan o'zgarishlar samarasini moliyaviy hisobotda qay yo'sinda aks ettirish kerakligi kabi masalalar asosiy masalalar sifatida ko'rib chiqiladi.

21-sonli "Valyuta kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS quyidagilarga nisbatan tadbiiq etilmaydi:

- Moliyaviy instrumentlar bo'yicha xorijiy valyutalarda aks ettirilgan qoldiqlar va operatsiyalarni hisobga olishda (9-sonli "Moliyaviy instrumentlar" nomli MHXS);
- Xejirlashni hisobga olishda (9-sonli "Moliyaviy instrumentlar" nomli MHXS);
- Xorijiy valyutada va xorijiy faoliyat bo'yicha aks ettirilgan operatsiyalar bo'yicha "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ni taqdim etishda (7-sonli "Pul mablag'lari harakati to'g'risida" gi MHXS).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasiga o'tkazish uchun quyidagilar zarur bo'lib hisoblanadi:

- Aktivlar va majburiyatlar yakuniy kurs bo'yicha o'tkaziladi;
- Foyda va zararlar operatsiyalar sodir bo'lgan sana bo'yicha qayta hisoblab chiqiladi (standart bo'yicha o'rtacha kursni qo'llashga ruxsat etiladi);
- Kurs farqlari kapitalning alohida tarkibiy qismlari sifatida tan olinishi lozim.

21-sonli "Valyutalar kursi o'zgarishlarining ta'siri" nomli MHXS ga muvofiq valyutalar kursi o'zgarishlariga ta'luqli moliyaviy hisobot malumotlarini ochib berish quyidagicha amalga oshirilishi taklif etamiz:

- Hisobot davrida foyda yoki zararga olib borilgan kurs farqlari summasi to'g'risidagi malumotlarni;
- O'z kapitali sifatida tasniflanadigan sof kurs farqlarini xususiy kapitalning alohida komponenti sifatida ochib berish kerak. Shuningdek, mazkur kurs farqlarining summasini hisobot davri boshi va oxiriga nisbatan solishtirish to'g'risidagi axborotlarni ochib berish kerak.

Moliyaviy hisobotlarni elon qilish valyutasi funksional valyutadan farq qilganda, mazkur fakt funksional valyutani alohida ko'rsatgan holda eslatib o'tilishi lozim. Shuningdek, funksional valyutadan farq qiladigan hisobot topshirish valyutasini qo'llash sabablari moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar, izohlar va sharhlarda ko'rsatib o'tilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy hisobotning milliy standarti (2-sonli MHMS) "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asoslari:hisob siyosati va hisob baholari. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2026-yil 12-martdagi 345-son buyrug'iga ilova;

2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (22-sonli BHMS) "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi". O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrda 201-son buyrug'iga 1-ilova;

3. International Accounting Standard 21. The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates <https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf->

standards/english/2021/issued/part-a/ias-21-the-effects-of-changes-in-foreign-exchange-rates.pdf

4. МСФО 21 (IAS 21) Международный стандарт финансовой отчетности (ias) 21 "Влияние изменений обменных курсов валют" 2026 год. <https://finotchet.ru/articles/143/> ;

5. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (4-sonli BHS) “Valyuta kursi o‘zgarishining ta’siri”. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 13-noyabrdagi 142-son buyrug‘iga ilova. Toshkent sh., 2018-yil 13-noyabr, 142-son;

6. «Chet el valyutasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qaror, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qumitasi, O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki boshqaruvi, O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasining Qarori. [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1411-3];

7. Учебное пособие АССА ДипИФР. Диплом АССА по международной финансовой отчетности. Июнь, 2020. www.training.pwc.ru ;

8. А.В. Суворов - к.э.н., председатель Ассоциации бухгалтеров и аудиторов “Феникс”. “На пути к международным стандартам: Влияние изменений валютных курсов.” Журнал: Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 24 (96) – 2003 г;

9. Мамедова Б.А. Влияния изменения валютного курса на экономику страны и методы его регулирования. Туркменский государственный институт финансов, г. Ашхабад. Журнал: SCIENCE TIME. Выпуск №4 (2015);

10. <https://depozit.uz/> - O‘zbekistondagi moliyaviy supermarket (financial aggregator) sayti; Основные причины изменения валютных курсов. 12 марта 2024;

11. www.uzrvb.uz - O'zbekiston Respublika Valyuta Birjasi veb-sayti;

12. <https://www.gazeta.uz/ru/economy/> - O‘zbekistondagi eng mashhur va nufuzli onlayn iqtisodiy yangiliklar portali.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

